

“BOQIY DARBADAR” ROMANIDA YO‘L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI.

Abduhalimova Sitora Suhbatjon qizi

Isajon Sulton qalamiga mansub “Boqiy darbadar” romani ijodkorning eng muvaffaqiyatli, shu bilan birgalikda bu roman yozuvchijodining milliy qirg'oqlardan oshib, jahon adabiyoti ummoniga quyilgan tiniq bir irmoqqa aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu roman kitobxon yoshlar tomonidan iliq kutib olindi va butun omma miqyosida ko'plab muhokmalarga sabab bo'ldi.

Zebo Qobilova mazkur roman yuzasidan har bir kitobxon ichida tug'yon urgan tuyg'uni quyidagi so'zlar orqali ifodalab berdi:

“Roman bilan tanishish jarayonida kitobxon bir necha soniyalarga bo'lsada, “boshidan do'ppini olib” tafakkur qilishga imkon topadi”.¹

Albatta, yuqoridagi fikrlar bejiz emas. Bu roman shunchaki o'qilmaydi u aql va qalb bilan his qilinadi va shularga bo'ysungan holda tahlil etiladi. Ijodkor bu roman uchun faqatgina bir mavzu yoki bir qahramonni tanlab olmagan. Roman o'z atrofiga turli insonlar va ular bilan yuz berayotgan voqea-hodisalarni qamrab olgan. Uning tasviri ko'lami kengdir. Ijodkor romanda barcha taqdirlar va ulardagi tasvir vositalarini aynan bir nuqtaga jamlagan. Romanni mutolaa qilgan o'quvchi undagi yashiringan asl mazmunni anglab yetish uchun qayta-qayta o'qib, har o'qiganida ijodkorning o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgan asl fikr-mohiyatini anglab boradi. Roman shunchaki o'qilmaydi undagi asl mohiyatni bilish uchun u uqiladi va idrok qilinadi. Isajon Sultonning bu asari aynan roman janriga xosligini adabiyotshunos Dilmurod Quronov quyidagicha izohlaydi “ “Boqiy darbadar” ning janrini muallif roman deb belgilabdi. Ehtimol, ayni hol didi an'anaviy romanlar ruhida tarbiyat topgan o'quvchida e'tiroz uyg'otar ham. Axir, bunda yaxlit bir

¹ O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi til, adabiyot va folklor instituti. Yetuklik jozibasi. /Isajon Sulton ijodi: ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabi suhbatlar, maktublar. Toshkent, 2017. -B.218

voqea bo‘lmasa, ko‘p planli syujet asosida voqelikning keng epik manzarasi tasvirlanmagan bo‘lsa, markazida qahramon turmasa...-nimasi roman?! Jahon adabiyoti tajribalaridan, xususan, G‘arbda yarim asrlar ilgari boshlangan “yangi roman” bobidagi izlanishlardan ozmi- ko‘pmi xabardor o‘quvchida e‘tiroz tug‘ilmasa kerak. Zero, “Boqiy darbadar” da an’anaviy eposga xos voqeaband syujet o‘rnida sirtidan bir-biriga bog‘lanmay turli zamon va makonda, goh reallik, gohi hayolotda kechuvchi voqealar tasvirlangan, markazida risoladagidek qahramon turmagan bo‘lsa-da, ularni bir narsa – hayotning ma’nisiyu bashariyat taqdiri haqida o‘yga tolgan muallif shaxsi birlashtiradi, yaxlit butunlikka –romanga aylantiradi”.²

Olimlar ushbu romanning mavzusini dunyo adabiyotidagi bir necha asrlardan beri turlicha talqinlarga yo‘l ochib berayotgan mavzular sirasiga olib kirishgan. Romanda Iso alayhissalom devorga suyanib vir oz nafas rostdashni istagani uchun unga qo‘l ko‘targan va shu sababli Iso alayhissalom yer yuxiga qaytguniga qadar olamda darbadar kezishga va insonlar nafratiga duchor bo‘lgan bir etikdo‘z voqeasidir. Ba’zi rivoyatlarga ko‘ra esa Boqiy darbadarga aylangan o‘sha etikdo‘zning har ellik yilda Quddusga tavba qilish uchun klishi, lekin har kelganida daxshatli shamol tufayli niyatiga erisha olmasligi haqida ma’lumotlar bor. Mangulikka uchragan ushbu personajga yaqin boshqa rivoyatlar ham mavjudligini aytib o‘tishgan. Misol tariqasida, vahshiy qush jazolayotgan Prometey, Boqiy darbadar kabi daydishga mahkum etilgan Qobil, toqqa behuda tosh olib chiqishga behuda urinayotgan Sizif va o‘rta asrlar Yevropasining “Uchar Gollandiyalik” haqidagi mashxur afsonalari keltirib o‘tilgan. Boqiy darbadar obrazi o‘n uchinchi asrga kelib paydo bo‘lganligi va 1228-yilda Rodjer Uendoverskiyning parijlik Metyu tomonidan tuzilgan “Katta xronika” sida uchraganligi aytib o‘tilgan va asrlar davomida tuzli xalqlarning yozuvchilar o‘z asarlarida bu obrazni yoritishgan. XXI asrga kelib yevropa adiblarida boshqa adiblar murojaat qilmagan Boqiy darbadar obraziga Isajon Sulton o‘zbekona

² O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi til, adabiyot va folklor instituti. Yetuklik jozibasi ./Isajon Sulton ijodi: ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabi suhbatlar, maktublar. Toshkent, 2017. -B.205

qarash bilan roman tasviriga olgan. Yozuvchi o‘z qarashlarida “darbadarlik” ni faqatgina la’natga uchragan inson qiyofasida emas balki, oddiy hayotda yashab turib ham darbadarlik xavfiga duchor kelishi mumkin ya’ni hayotdagi maqsadini bilmasdan umr o‘tkazish, o‘zligini anglay olmaslik va hayotdagi missiyani aniqlay olmagan qiladigan ishi ma’nisiz “hech narsa va faqat hech narsa” bo‘lib qolgan insonlarni ham “asl darbadar” deb biladi va bu darbadarlikdan faqatgina bir maskan tomon yurib ya’ni iymoniga quloq solib xalos bo‘lish mumkin degan g‘oyani ilgari suradi. Ya’ni asardagi eng ahamiyatga molik muammo deb olamdagi barcha narsaning o‘tkinchiligi, inson uchun iymon, insoniylik, mehr-muhabbat, kindik qoni tugilgan diyorning qanchalik muqaddasligini va insondagi iymon Vatansiz mavjud bo‘la olmasligini kitobxonga yetkazishni maqsad qiladi. Asar hajman kichik bo‘lsa-da uning tasvirida mavjud bo‘lgan kichik qismlar tarkibida mavjud bo‘lgan fikrlar, g‘oyalar, diniy qarashlar, tasavvurlar va kitobxonni o‘yga toldiradigan jarayonlar , diniy hamda ilm-fan kashfiyotlariga doir bilimlarning berilishi hamda yozuvchining romanida uzoq o‘tmishdan yaqin kelajakkacha bo‘lgan vaqtni qamrab olishi ijodkorning chuqur bilim va salohiyatidan darak beradi. Romanning ibtidosi keltirilgan tasvir haqida Damin To‘rayev shunday fikrlarni bildirishgan: “ “ Boqiy darbadar” romani ibtidosida yozuvchi insoniyat tarixida yozuvlik timsoli bo‘lgan Rim imperiyasining qatag‘on quroli – O‘lim lashkarlari haqida xabar berishining o‘ziyoq roman syujeti voqealarini harakatga keltirib beradi”.³Xalq “Maxes” deb nomlagan O‘lim lashkari Muborak Zotni qatl tomon olib ketayotganligi tasviri bilan romanning boshlanish nuqtasi kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalanadi. Ijodkor Muborak Zotning payg‘ambar ekanligini bildirish uchun esa badiiy detal qilib – mahkum boshi uzra soya tashlab kelayotgan oq bulutlar timsolida uning Muborak payg‘ambarligini namoyon qiladi. Romanda ahamiyatli yana bir detal mavjud bo‘lib bular - oyning o‘n uchinchi kunida, juma kuni uchib keladigan qop-qora chumchuqlar galasidir. Romanda bu detal qarg‘ish ma’nosini ifodalab ma’naviy biron qobilyatga ega bo‘lmagan avval’ tegirmonchi , so‘ngra sudxo‘r va so‘ngida etikdo‘z

³ O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi til, adabiyot va folklor instituti.Yetuklik jozibasi ./Isajon Sulton ijodi: ilmiy maqolalar, taqrizlar,adabi suhbatlar,maktublar.Toshkent,2017.-B.121

bo‘lib la’natg uchragan darbadar tasviri ham mavjuddir. Turli mavzularni, yarim tariixiy, yarim hozirgi internet tili va ilm-fan sohasini o‘z ichiga qamrab olgan romanning viqealar bayoni sun’iy tarzda hayvonlarning genlari bilan chatishish orqali yuzaga kelgan, sira o‘lmaydigan sun’iy inson haqida genshunos olimlarning qarashlari yoritilgan mavzular bilan birlashib ketadi.

Roman bir nuqtaga ko‘plab qahramonlar taqdirini birlashtiradi, romanda yuz berayotgan voqea-hodisalar negizida aynan bir bosh qahramon mavjud emas. Roman tarkibiga jam bo‘lgan har bir voqeaning o‘z qahramoni bor. Kitobxon romanda ko‘plab taqdir egalarini turli xil zamon va makonlarda, yo‘l xronotoplarida uchratadi. Romanda inson taqdiri, insonni fikrlashga undovchi g‘oyalarning mavjudligi ahamiyatlidir. Bu voqea-hodisalar orqali ijodkor kitobxon uchun bir umrlik foydali, badiiy adabiyot ixlosmandlari uchun kerakli narsani ularning ongiga yetkazishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Shu bilan birgalikda romanda inson yuragiga ona suti orqali kiradigan muqaddas tuyg‘u vatanparvarlik, millatga iftixor, farzandning ota-ona oldidagi burchi kabi tahsinga loyiq hislar asar qahramonlaridan biri professor Ziyoning o‘g‘li tomonidan yozilgan maktubni o‘qish jarayonida qalbimizning tubidan bu faxr tuyg‘usini o‘tkazsak ajab emas.

Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romani hajman qisqa bo‘lishiga qaramasdan jahon va o‘zbek adabiyotining yirik durdona asarlarida keladigan xronotopning turlari uchraydi. Xususan, genezesi xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladigan yo‘l xronotopining o‘ziga xos badiiy-estetik funksiyalari roman tarkibida namoyon bo‘ladi. Demak, badiiy asar uchun yo‘l xronotopining ahamiyati qay darajada? Dastlab, folklor namunalari va xalq og‘zaki ijodi namunalari, xalq dostonlari va ertaklar tarkibida ham safar markazida o‘ziga xos tarzda mavjud bo‘lgan sinovlar va yo‘l xronotopi sarguzashtlari turadi. Asarlardagi bosh qahramonlar o‘z murod-maqsadiga yetishish niyatida, o‘zligini anglash maqsadida safarga chiqishadi va bu safar jarayonida turli-tuman, o‘ziga xos bo‘lgan yo‘llarga duch kelishadi. “Yo‘l” toposi romandan tashqari XVII asr publitsistik-sayohat janrlarida ham uchraydi. Abdulxamidova Hikmatoy ustoz ekzotik begona dunyo bo‘ylab o‘tadigan yo‘lning mohiyatan o‘zining ijtimoiy tarixiy funksiyasini bajarishi “Boqiy darbadar” da

ko'zga tashlanishini asoslab berishgan. Sahrodagi Karvon, Tyanshan tog'i bag'ridagi avliyo, Qizil dengiz sohilidagi voqea, Arab sahrolari, Gobi uzra sodir bo'lgan voqea-hodisalar, Bobo Toshbaqa, Shahri Haybar, Atlantika ummoni va Osiyo sohillari, sahrodagi yo'lilar karvoni, Shimoliy Amerikadagi xalqaro anjuman qismlariga qamrab olingan voqeliklarda ayni xususiyatlari ifodalanadi. Bunda makonning mazmunini yuzga chiqarish uchun zamon kengayadi ya'ni asardagi ma'lum bir qism o'ziga xos bir yo'lda ifoda etiladi, ayan shu tasvirda bosh qahramon bilan birgalikda kitobxon tafakkuri va fikrlay olish darajasi kengayadi. Ijodkorning asariga kiritilgan xronotop yozuvchining yashash hududi va o'ziga xos dunyoqarashi bilan bog'liqlikni kasb etadi. Aslini olganda bu shunchaki la'natga uchragan insonning yo'l emas, balki bu yo'l insoniyatning taqdiriga bitilgan o'zlikni anglab yetish yo'lidir. Isajon Sulton romancing qahramoni etikdo'z esa sargardonlik yo'lidan o'zini anglab yetishg, o'zini taftish qilib, hayotdagi asl maqsadini bilishga intilib yo'ldan-yo'lga, safardan–safarga ravona bo'ladi.

“Isajon Sulton romanlarida yozuvchining xalq ertaklariga xos qahramonni safarga yo'llash motive asosiga syujet tizimini qurish uslubi mavjud. Bu folklorizmning structural poetik vazifa bajarishini ta'minlagan bo'lsa, urf-odat, irim-sirimlar va milliy an'analarning qahramon harakati va nutqi orqali ifodalanishi asar mazmunining boyishiga xizmat qilgan. Etnografik detallar mazmun va estetik ta'sirni oshishiga xizmat qiluvchi badiiy vosita vazifasini bajargan”. Shuningdek, mental qadriyatlarga xos bo'lgan etikdo'zning hovlisi, qishloq va sahro toposlari, ota-bola munosabatlarini ifodalanishida yozuvchi an'ana va qadriyatlarga oid detallat tasvirlangan o'rinlari mavjudligi aytib o'tilgan.

Asarda tasvirlangan voqealar uzoq vaqtni, jamiyatdagi turfa taqdirlarni, insoniyat orasidagi nuqsonlarni bartaraf etish yo'lidagi umumlashmalarni o'zida jamlagan. “Boqiy darbadar” romanida vaqt, makon va tafakkurning g'oyat keng hududlari qamrab olingan, - deya A.Rasulovning ta'kidlashlari keltirib o'tilgan. Bundan ikki ming yil avval ro'y bergani aytiladigan bir afsonadan boshlanib, to bugungi kunimizning jarayonlarini va olamning turli qit'alarida ro'y bergan hodisalarni o'z ichiga oladi.

Isajon Sulton roman uchun nomsiz sargardon insonlarni tanlab oladi. Ularning har biri la'natga uchrash natijasida darbadar holiga kelmagan. Ular yer yuzining turli nuqtalarida o'zligini anglash, Haqni topish niyatida yurgan qo'shtirnoq ichidagi darbadar insonlardir. Ular orqali tasvirlangan makon va zamon dunyoni bir roman yordamida kaftdek ko'rishimizga yordam beradi.

Asar kompozitsiyasi jihatda uch qismdan iboratdir va har bir qism o'z ichida o'zaro bog'liq voqealardan tashkil topgan. Asar ekspozitsiyasi xronotoplar asosida tasvirlangan. Sahro, shahar, tepalik va adir xronotoplaridan boshlab sharlar xronotopigacha voqealarni bir nuqataga jamlaydi. Har bir tarkibiy qismning o'z zamoni va makoni bor va ular turlichadir. La'natga uchragan darbadar avf so'ab turli makonlar va zamonlar va o'ziga o'xshagan kimligini anglash uchun harakat qilayotgan darbadarlarga duch keladi va ular yordamida qahramon qaytadan tarbiyalanadi. "Boqiy darbadar" romanida yo'l asarda ishtirok etgan toposlarni bog'lovchi xronotop hisoblanadi.

Asarda dastlabki ibtido qismida Arabiston cho'llari va bu cho'l tomon shamol orqali suzib kelayotgan bulutlar tasviri so'ngra baland-past ko'chalarda Muborak Zotning qatl qilish tomoshasiga tayyorgarlik ko'rayotgan olamon hamda qatl uchun maxsus tepalikda tayyorlangan joy tasvirlangan. Bu qismda voqeaning boshlanish nuqtasi tasvirlanib, kitobxon ko'z oldida xuddi shu manzara tasvirlangandan so'ng tasvir etikdo'zning loysuvoq uyining yonida to'plangan, na ovoz chiqaradigan, na don-dun teradigan qora chumchuqlarning tasviriga ko'chadi. Keyingi, qismda esa "bashorat motivi" orqali Hazrat va etikdo'zning suhbat "adir xronotopi" da bir nuqataga kesishadi. So'ngra, esa adib asarning asl mohiyati tomon o'quvchini yo'naltiradi. "Duoyibad" qismining boshlanishida shaharning qatl jarayoni va daraxtlarning shoxlarida olamon va etikdo'zga ma'nisiz ko'zlari bilan boqib turgan qora chumchuqlar, Muborak Zot qatl etiladigan shahar tepaligi tasviri bilan voqea ichiga kiriladi hamda bu qismda "qarg'ish motivi" yuzaga keladi. Muborak Zotga qo'l ko'targani bois umrbod (to Qiyomatga) qadar yer yuzida betinim, maqsadsiz daydishga mahkum etilgan etikdo'z obrazining yo'l xronotopi endi butun dunyo bo'ylab kezib, yuzaga keladi. Muborak Zotga qo'l ko'targan bu badbaxtni o'z shahridan

quvg'in qilishadi.Oradan yuz yil o'tgandan so'ng vataniga qaytib kelgan taqdirida ham odamlar uni quvib solishadi natijada uning qismati faqatgina besamar daydishdan iborat bo'ladi. So'ngra ijodkor darbadarlikka mahkum etilgan qahramon orqali jamiyatdagi ayrim qirralarni ochish uchun uni turli zamon va makonlarga yo'naltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. X.Abdulxamidova. Isajon Sulton romanlarida xronotop./ Filologiya Fanlari bo'yicha Falsafa Doktori (PhD) dissertatsiyasi. Farg'ona,2023.
2. Yetuklik jozibasi: Isajon Sulton ijodi:ilmiy maqolalar,taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar. –T.: Turon zamin ziyo,2017
- 3..Isajon Sulton/Qoraqush yulduzining siri: “Boqiy darbadar”romani.-T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2019.
- 4.M.Baxtin/ Toshkent: “Romanda zamon va xronotop” shakllari.- T.: Akademnashr, 2015.